

**KO'ZALIQIR MADANIYATI YODGORLIKLARINING O'RGANILISHI****Sabirbaev Alisher Nurlibay o'g'li***Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya ta'lim yo'nalishi
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqolamizda Xorazmning qadimiy yodgorliklaridan biri bo'lgan temir davriga oid keng o'rganilgan Ko'zaliqir madaniyati yodgorliklari tahlil qilinadi. Shuningdek bu madaniyatda joylashgan bazibir yodgorliklar tasnifi ham berib o'tilgan. Ko'zaliqir yodgorligi erta va kechki temir davriga oid boshqa yodgorliklardan o'ziga xos ajralib turuvchi jihatlarini o'rganishga va shu asosda umumiy xulosalar chiqarishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: tashqi migratsiya, tayanch manzilgoh, yarim dumaloq zodiaklar, moddiy innovatsiya, materik, otashgoh, Oltindilyor, Qiziltepa, yarim o'troq jamiyatlar.

Ko'zaliqir mahalliy Amirabod, Quvisoy va saklar madaniyatlaridan keskin farqlanib Xorazmda ko'pdan ko'p asrlar davomida ma'lum bo'lmagan moddiy dasturlarning yoyilishi va rivoj topishi bilan aniqlanadi. Bu dasturlarning asosiy belgilari juda alohida hisoblanadi.

Ko'zaliqir madaniyatiga tegishli arxeologik materiallar o'rta Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan Qo'shqal'ada va janubiy Xorazmda va Davdon o'zani havzasidan topilgan miloddan avvalgi V asrga kelib Ko'zaliqir madaniyati yodgorliklari quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi joylarda tarqaladi. Qo'shqal'a - O'daytepadan, Amudaryo bo'ylab janubiy yo'nalishidagi Karki va Choplitepada miloddan avvalgi VII-VI asrlarga tegishli qadimgi Baqtriya madaniyati topilgan ashyolardan aniqlanishi diqqatga sazovor. Bu yodgorliklarning topografik joylashuvi Amudaryoning chap sohilida Baqtriyadan Xorazmga olib boradigan yo'lning rivojlangani haqida ma'lumot beradi. O'daytepa bo'lsa Marg'iyona va Baqtriya xalqi vakillarining shimol-g'arb va shimoliy hududlariga migratsiyalarining tayanch manzilgoh sifatida ta'riflanadi.

Xorazm vohasida Ko'zaliqir materialligining paydo bo'lishi paxsa va xom g'ishtdan himoya qurilishlari va turar joylarning qurilish, kulolchilik uskunasida yasagan idishlarining tarqalish jarayonlarining tadqiqotchilarning Xorazmning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi bilan izohlaydilar. B.I. Vaynberg Ko'zaliqir madaniyati paydo bo'lishini moddiy aralashish sifatida Baqtriya - Marg'iyona - Parfiya moddiy topilmalari bilan bog'liqligini belgilab shuning bilan birga quyi Amudaryo hududiga janubiy xalq guruhlarining migratsiyalarining bashorat qilishga hech qanday asoslar yo'q deb yozadi. Bazi tadqiqotchilarning Ko'zaliqir madaniyati sanasini miloddan avvalgi VI asrning I yarmi bilan belgilab ketadi, boshqalar bo'lsa Xumbiztepadan kulolchilik uskunasida ishlangan dastlabki kulol idishlar miloddan



avvalgi VII asrga tegishli Ko'zaliqir misolida qadimgi Xorazm himoya imoratlarining yuzaga kelishi va amal qilinishining birinchi davri miloddan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi" degan xulosa chiqaradi. M. Mambetullaev yozishicha - kulolchilik uskunasi yasalgan sopol idishlarning Xorazmda paydo bo'lishi etnik sabablardan kelib chiqib janubiy Turkmaniston va Shimoliy Baqtriya xalq guruhlarining Xorazm vohasiga migratsiyalari bilan bog'liq bo'lgan. Ko'chib kelgan elatlar o'z moddiy dasturlarini yangi o'zlashtirilgan hududga natijani amalda qo'llaganlar. Bundan oldin A.S. Sagdullaev quyidagi fikrlarni bildirgan edi; "Baqtriya hududida moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlansih keyinroq O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (So'g'd -Xorazm) texnologik yangiliklarning bosqichma-bosqich tadbiiq etilishini belgilab berdi.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda namunaviy, birdek to'g'rito'rtburchak xom g'isht silindr - konussimon shakldagi loydan yasalgan idishlarning standart variantlari turarjoylarning me'morchilik tuzilishi, ichki dahlizlarga ega va yarim dumaloq zodiaklar bilan mustahkamlangan himoyalanih tizimining Markaziy Osiyoning bir qator viloyatlarida yoyilishi bu - Eron -Midiya va yangi Babil moddiy dasturlaridan farqlangan Baqtriya moddiy innovatsiyasidir".

Bizningcha Xorazmda dastlabki temir davri moddiy rivojlanishida tashqi migratsiyalar za'ruriy tamoyil bo'lgan. Yangicha hunarmandchilik sohalari arxitektura uslublari va moddiy madaniyat dasturlarining paydo bo'lishi oqibatida, yangi turmush tarzi yana ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shakllanib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi sa'viyasiga ta'sir qilgan.

Ko'zaliqir, Amirabod, Quoyisoy madaniyatlari yodgorliklariga solishtirganda rivojlangan himoyalanih tizimi, saroy shaklidagi yirik qurilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan teleklar va olovga sig'inishga oid qadamjolarining borligi bilan ajralib turadi.

Ko'zaliqir, Baqtriyadagi dastlabki temir davriga oid himoya devoprlari bilan o'ralgan yirik markazlari Oltindiyor, Qiziltepa singari tashqi hujumlar paytida atrof xalqi vajamoatlarning asosiy boyligi chorva uchun xavfsizlik vazifasini bajargan.

Ko'zaliqirda topilgan qoramol suyaklari 32,6 % tashkil etadi (Quoyisoy II da - 30% ga yaqin), Dingilja uy- qo'rg'oni ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 21,7 % ga teng bo'lib, tadqiqotchilarning ma'lumotiga qaraganda, miloddan avvalgi V asrda Xorazm vohasida sug'orilish uskunasi jadal rivojlanishi natijasida, qoramol boqishga mo'ljallangan o'tloqlar maydoni kamayib borgan. Biroq miloddan avvalgi VII-VI asrlarda yuqori unumdor chorvachilik shakli sifatida yirikshoxli chorvani ushratish mahalliy xalq hayotida katta rol oynagan. Shuningdek, mayda chorva, ot, tuya va eshak suyaklari topilgan.

Uskunasi rivojlanishi haqida Ko'zaliqirda aniqlangan teleklar va bazi qurollar - o'roqlar bundan dalolat beradi.

Dastlabki temir davri Xorazm vohasining "Avesto" ma'lumotlari bilan solishtirgan holda, quyidagi 4 turga bo'lish mumkin: oila, urug', qabila, qabilalar ittifoqi ya'ni - "nmana", "vis", "zantu", "daxyu". Turli xil tadqiqotlarda Xorazmning qadimgi ijtimoiy



tarkibini Avesto jamiyati bilan solishtirish za'ruriy ahamiyat kasb etgan. Bor arxeologik ma'lumotlar jamiyatning turli guruhlariga va toifalarga bo'linganligi haqida ma'lumotlar beradi. Quvisoy va Ko'zaliqir madaniyati belgilariga ko'ra, miloddan avvalgi VII-VI asrlarga tegishli Xorazm vohasi ijtimoiy tizimi chorva uskunasi jamiyati sifatida ta'riflash mumkin.

O'z vaqtida S.P.Tolstov tomonidan "miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Xorazmning buyuk irrigatsiya tarmoqlari quriladi" degan xolosa chiqarilgan edi. Leekin yuqorida belgilangan asrlarga tegishli yirik sug'orish imoratlarining qoldiqlari janubiy Xorazmda va Sariqamish bo'yi va Davdon havzasida hozirgi kungacha topilgan moddiyati holatiga ilmiy adabiyotlarda e'tibor qaratilgan va bunday sug'orish imoratlari Xorazmda miloddan avvalgi VI asrning so'nggi choragida paydo bo'lgan deb fikr bildirgan.

Xorazm hududidagi temir davri jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy belgilari haqida ma'lumot keltirsak ular quyidagicha:

1) Quvisoy, saklar: hayoti va iqtisodiy belgilari, yarim o'troq, mavsumiy ko'shmanchi. Kulolchilik (asosan qo'ldan yasalgan), bronza va temirchilik hunari, ip yigirish va to'qimachilik, metall, yog'och, tosh va suyakka qayta ishlov berish singarilar. Ijtimoiy tomondan bo'lsa urug'-qabila tizimi. Urug' boshliqlari, qabila yo'l boshchilari. Jangovar otliqlar, o'zga dindagi diniy xizmatchilar urug'ning o'rtahol va oddiy a'zolari.

2) Ko'zaliqirliklar iqtisodiy jihati va turmushi: o'troq yashagan, chorvachilik sohasi bilan shug'ullangan. Kulolchilik (kulolchilik Charxi va xumdonlarning paydo bo'lishi), bronza va temirchilik hunari, ip yigirish va to'qimachilik, xonaki hunarmandchilik mashg'ulotlari asosiy o'rinni egallagan. Ixtisoslashgan qurilishsozlik. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga mo'ljallangan alohida teleklar bor ekanligi. Ijtimoiy alohida belgilariga to'qaladigan bo'lsak quyidagicha: katta oilalar, urug' jamoalari. Urug' va qabila sardorlari, o'zga dindagi diniy xizmatchilar, hunarmandlar, urug' jamoalareining o'rta va oddiy a'zolariga bo'lingan. Shundan ma'lum bo'ladiki bir biriga o'xshash tomonlari va o'ziga xosliklar ikkalasida ham bor. Shuni ham aytib o'tish kerakki dastlabki temir davrida Xorazm hududida faqatgina Xorazm balki butun O'rta Osiyoda yirik o'zgarishlar va rivojlanishlar yuz berganligi ma'lum bo'lib hisoblanadi.

Ko'zaliqir misolida ko'rishimiz mumkin miloddan avvalgi VI asrga tegishli Xorazmning ijtimoiy munosabatlar tarixida tarkibiy jarayonlar yuzaga kelganligi baholanadi. (Ichki qo'rg'onda qarorgoh – saroy va ibodat qilish markazining aniqrog'i ibodatxonaning yuzaga kelishi. Bu voqea Xorazm hududi g'arbiy qismida (Sariqamish bo'yi hududlari) qabilalar ittifoqi harbiy yo'l boshchisining ijtimoiy o'rni talaygina oshib borganini ko'rishimiz mumkin.

Aytib o'tish kerakki, dastlabki temir davri va temir davrida xalqning tabaqalanishi jadal sur'atda kechgan. Boshqaruvdagi tabaqa albatta eng e'tiborlilari bo'lgan. Harbiylar ham o'zining katta mavqesiga ega bo'lgan. O'rta va oddiy jamoalar jamiyatning eng za'rur qismi hisoblangan.



Iqtisodiy tomondan janubiy Orol bo'yi hududlaridagi xalq juda katta rol o'ynagan, asosan chorva va hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo – iqtisodiy aloqalar olib borilgan. Asosan ayrboshlash shaklida savdo qilingan.

Xorazm vohasida dastlabki temir davri moddiy rivojlanish yana ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalalarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

a) miloddan avvalgi VII-VI asrlarda janubiy va shimoliy Orol bo'yi keng hudularida chorva qadimiy jamoalarning asosiy boyligiga aylangan. Qoramol va mayda chorva boqish bilan birga yilqichilik va tuyachilik rivojlangan. Chorvachilikning bu sohalari mahalliy xalq vakillarining hayot tarzi hunarmandchiligi va moddiy madaniyatiga ta'sir qilgan va shu ta'sir ostida rivojlangan va o'sib borgan.

b) oldingi nashr qilingan adabiyotlardan o'rin olgan Xorazm vohasida temir davri boshlanishidan yirik yasalma sug'orish qurilmalarining paydo bo'lish sohasining yetakchi xo'jalik shakliga aylanishi haqida bashoratlar hali ham o'z tastig'ini topganicha yo'q. Yuqoridagi singari qarashlar amalga chiqqan paytda Xorazm vohasi dastlabki temir davri sharoitida chorvachilikning ahamiyati va imkoniyatlari masalasi yetarlicha e'tiborga olinmagan

c) Yuqori unumdor chorvachilik jamoat a'zolari, sohasiga nisbatan tez su'ratda oziq-ovqat va xom ashyo mahsulotlari bilan taminlash va ularni ayrboshlashda qulay imkoniyatlar yaratgan. Bu oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash, yung, teri va charmning talablarni qondirish jarayonida za'ruriy, hayotiy omil bo'lgan. Chorvachilik jamoalarni moddiy tomondan boyitishga xizmat qilgan. Ma'lum miqdorda bularning hammasi ish bilan taminlanishga olib kelgan.

d) Xorazmda dastlabki temir davri sohalari rivojlanishi Aqshadaryo va Davdon o'zanlarining yon toonlarining suvining bazida kamayib, bazida ko'tarilib turishi bilan bog'liq bo'lgan. Amudaryoning asosiy irmog'idan kanallarga suvlandirish ishlarini amalga oshirish uchun shu davrlarning sohalarida kerakli bilim va tajriba ko'nikmalari bo'lmagan. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki janubiy Orol mintaqasida bronza va temir davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar keng rivojlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <http://lex.uz/pages/getpage.aspx?last id=3107036>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevralidagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <http://lex.uz/docs/> 3117025.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar



Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil, 20-sentabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning olimlar, akademiklar, tadqiqotchi va talabalar bilan uchrashuvi. 2019-yil 24-may. Uza.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7. Toshkent 1999.

6. Абаев В.И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историкофилологические исследования. – М.: Наука, 1974. – С. 310-321.

7. Abdullaev H. "Avesto" va Xorazm Vohasi folklori // O'zbekiston tarixi, 2001. – № 3. – B. 38-42. 230

8. Абрамзон С.М. Формы родо – племенной организации у кочевников Средней Азии // Труды Института этнографии. – М., 1951. Т. XIV. – С. 152-156.

9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar/ Tanlangan asarlar. Tarjimon A. Rasulov. – Toshkent: Fan, 1968. Т. 1.– 416 б.

10. Аванесова Н.А. Степи Севера и оазисы Юга: проблема культурных взаимодействий в эпоху бронзы // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. – Алма-Ата, 1987. – С. 53-55.